Raqamli markirovkalash bo'yicha mahsulot nomi, hajmi, ishlab chiqarilgan sanasi va tasvirlari haqidagi ma'lumotlarni jamlaydigan "Mahsulotlar katalogi"ga jami 57 mingta mahsulot turi kiritilgan. Jumladan, 7,8 mingta alkogol, 7,7 mingta tamaki, 1,2 mingta pivo va 40,2 mingta boshqa mahsulot turlari bo'yicha ma'lumotlar shakllantirilgan. Shuningdek, alkogol, tamaki va pivo mahsulotlari realizatsiyasi ishtirokchilari uchun elektron hisobvaraƒ-fakturada markirovka kodini kiritish hamda uning haqiqiyiligini validatsiya qilish talabi jami 12,1 mingta MXIK kodi orqali majburiy tartibda aks ettirilgan.

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 2-apreldagi 148-son¹¹ qarori ijrosi doirasida raqamli markirovkalanishi lozim bo'lgan maishiy texnika mahsulotlarining 53,5 mingdan ortiq turi "Mahsulotlar katalogi"ga kiritildi. Soliq organlari hamda "Asl belgisi" tizimi ma'lumotlariga ko'ra, jami 84 ta ishlab chiqaruvchi korxonadan 44 tasi tomonidan 11,9 mln dona, 784 ta import qiluvchi korxonadan esa 769 tasi tomonidan 33,4 mln dona raqamli markirovkalangan maishiy texnika mahsulotlari ishlab chiqarilgani va import qilingani qayd etilgan.

Shuningdek, maishiy texnika realizatsiyasining barcha ishtirokchilari uchun 1–3-bosqichdagi mahsulotlarga tegishli jami 17,7 mingta MXIK kodi bo'yicha markirovka kodini majburiy aks ettirish talabi belgilandi hamda validatsiya mexanizmi ishga tushirildi (1-jadval).

1-jadval
Ayrim turdagi mahsulotlarni raqamli markirovkalash tizimini joriy etish tahlili¹²

Mahsulot guruhi nomi	Tajriba loyihasi joriy etilgan sana	Majburiy markirovka joriy etilgan sana	Asos	Ishlab chiqaruvchilar soni	Import qiluvchilar soni	Ulgurji savdo ishtirokchilari soni	Chakana savdo ishtirokchilari soni	Katalogdagi mahsulotlar soni	Buyurtma qilingan markirovka kodlari soni, mln dona	Raqamli markirovkalangan mahsulotlar soni, mln dona	Aylanmadan chiqarilgan mahsulotlar soni, mln dona
Jami mahsulotlar bo'yicha	—	—	—	421	2 424	3 733	62 700	91 698	91 907	10 042,6	6 208,3
Tamaki mahsulotlari	2019-yil 1-dekabr	2021-yil 1-yanvar	BM-737	2	5	17	2 957	3 884	462	2 165,0	1 745,7
Alternativ tamaki mahsulotlari	—	2022-yil 1-oktabr	—	6	59	14	—	—	8 973	178,8	62,4
Alkogol mahsulotlari	—	2021-yil 1-yanvar	—	54	27	118	7 916	9 727	9 744	940,5	841,9
Pivo mahsulotlari	—	2021-yil 1-aprel	—	32	22	69	525	583	1 468	997,6	722,8
Maishiy texnika mahsulotlari	2021-yil 1-iyul	2022-yil 15-aprel	BM-148	73	1 443	803	7 878	11 833	53 584	98,6	81,9
Dori vositalari va tibbiy buyumlar	2021-yil 1-iyun	2022-yil 1-sentyabr	BM-149	60	635	280	8 858	16 148	12 062	3 494,7	1 633,1
Suv va salqin ichimliklar	2021-yil 15-iyun	2024-yil 1-mart	BM-631	194	233	2 432	34 566	49 523	5 614	2 167,4	1 120,5

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 2-apreldagi 149-son¹³ qarori ijrosi doirasida dori vositalarini raqamli markirovkalash bo'yicha muayyan natijalarga erishildi. Xususan, 62 ta mahalliy hamda 640 ta xorijiy ishlab chiqaruvchi, jumladan, 68 ta vakolatxona va 572 ta ishlab chiqaruvchi tomonidan 12,0 ming turdagi jami 1 633,1 mln dona markirovkalangan dori vositalari realizatsiya qilingani aniqlandi. Shundan 483,1 mln donasi mahalliy, 1 150,0 mln donasi esa xorijiy dori vositalariga to'g'ri keladi. Yakuniy iste'molchiga yetkazilgan mahsulotlar soni 9,7 mln donani yoki jami markirovkalangan mahsulotlarning 0,6 foizini tashkil etdi. Ushbu ko'rsatkichlar 1-jadvalda tahlil qilinadi.

[5205248?ONDATE=31.12.2020%2000](https://lex.uz/uz/docs/-5205248?ONDATE=31.12.2020%2000)

11 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 02.04.2022 yildagi 148-son <https://lex.uz/uz/docs/-5936141?ONDATE=02.04.2022%2001>

12 Manba: Soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

13 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 02.04.2022 yildagi 149-son <https://lex.uz/uz/docs/-5936145?ONDATE=02.04.2022%2000>



Dori vositalarining 530 ta xorijiy ishlab chiqaruvchi korxonasi ga identifikatsiya raqamlari taqdim etildi hamda 375 ta korxonadan elektron kalitlar olindi. Dori vositalarini ishlab chiqarish va import qilish jarayonida markirovkalash talablari belgilangan bo'lib, import qilinadigan dori vositalari bojxona deklaratsiyasida markirovkalanadi. Shu bilan birga, elektron hisobvaraƒ-fakturalarda markirovka kodlarini majburiy aks ettirish hamda ularni tekshirish, ya'ni validatsiya qilish mexanizmlarini bosqichma-bosqich takomillashtirish zarurati mavjud.

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 2-apreldagi 149-son¹⁴ qaroriga asosan, 2022-yil 1-sentabrga qadar ishlab chiqarilgan dori vositalarini uch yildan ko'p bo'lmagan muddatda markirovkasiz realizatsiya qilishga ruxsat berilgan. Shuningdek, ushbu mahsulotlar yuqori ijtimoiy ahamiyatga ega ekani sababli farmatsevtika mahsulotlarini raqamli markirovkalash tartibi bosqichma-bosqich va moslashuvchan yondashuv asosida joriy etilmoqda. Kuzatib borish tizimining 2025-yil 1-martdan joriy etilishi suv va salqin ichimliklar harakati zanjirini 2025-yildan boshlab tizimli monitoring qilish imkonini yaratadi.

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 1-noyabrdagi 631-son¹⁵ qarori ijrosi doirasida suv va salqin ichimliklar bo'yicha 199 ta ishlab chiqaruvchi hamda 105 ta import qiluvchi korxonadan 4 614 ta mahsulot turi "Mahsulotlar katalogi"ga kiritilgan. Shuningdek, ushbu mahsulotlar bo'yicha 968,3 mln dona markirovka kodi buyurtma qilingani ma'lum bo'ldi. Suv va salqin ichimliklarni majburiy raqamli markirovkalash talabi 2024-yil 1-martga qadar uzaytirilgani sababli, ushbu mahsulotlar importi, ya'ni bojxona yuk deklaratsiyasi hamda realizatsiyasi bo'yicha elektron hisobvaraƒ-faktura ma'lumotlarini "Asl belgisi" tizimida to'liq shakllantirish bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-maydagi PQ-203-son¹⁶ qarori ijrosi doirasida majburiy raqamli markirovkalanishi lozim bo'lgan mahsulotlarning chakana savdosi bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektlari orasidan har bir hudud kesimida inson omilisiz, avtomatik tarzda kamida 10 foizini tanlab olish hamda ularda nazorat tadbirlarini o'tkazish mexanizmi joriy etildi. Belgilangan talablarga rioya etilishi yuzasidan aniqlangan holatlar bo'yicha subyektlar faoliyatini keyingi uch chorak davomida monitoring qilish mexanizmi joriy etildi.

Ushbu maqsadda 100041 va 100042-mezonlar ishlab chiqilib, ular Soliq xavfini kompleks boshqarish axborot tizimiga joylashtirildi. Mazkur tizimda ushbu mezonlar asosida soliq xavfi aniqlangan subyektlar hisobini yuritish, ularga dastlabki ikkita ogohlantirish xatini yuborish hamda talablarga takroran rioya etmaslik holatlari kuzatilgan subyektlarni sayyor soliq tekshiruvlari uchun risk mezonlari asosida tanlash imkoniyati yaratildi.

Raqamli markirovkalanagan uch turdagi mahsulot — alkogol, tamaki va pivo mahsulotlari aylanmasi alohida tahlil qilindi. Ushbu tahlil natijalari 2-jadvalda aks ettirilgan.

Yuqoridagi 2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, raqamli markirovkalash tizimi doirasida alkogol, tamaki va pivo mahsulotlari aylanmasi bo'yicha shakllantirilgan ma'lumotlar ushbu mahsulotlarning turli bosqichlardagi harakatini, ya'ni markirovka kodlarini buyurtma qilish, ishlab chiqarish yoki import qilish, aylanmaga kiritish hamda yakuniy iste'molchiga realizatsiya qilish darajasini aks ettiradi.

Quyida har bir mahsulot turi bo'yicha batafsil tahlil keltirilgan (2-jadval).

2-jadval
Ayrim turdagi mahsulotlarni raqamli markirovkalash tizimini joriy etish tahlili¹⁷

Mahsulot turi	Mahsulot aylanmasi			
	Markirovka kodlari buyurtma qilingan	Markirovkalanagan mahsulot ishlab chiqarilgan yoki import qilingan	Mahsulot aylanmaga kiritilgan	Mahsulot yakuniy iste'molchiga realizatsiya qilingan
Jami	5 065 560 361	3 947 676 832	2 782 794 212	1 249 497 674
Alkogol mahsulotlari	1 071 964 611	965 011 008	935 889 397	171 549 346
Tamaki mahsulotlari	2 902 029 573	2 177 006 119	1 455 078 062	891 912 170
Pivo mahsulotlari	1 091 566 177	805 659 705	391 826 753	186 036 158

14 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 02.04.2022 yildagi 149-son <https://lex.uz/uz/docs/-5936145?ONDATE=02.04.2022%2000>

15 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 01.11.2022 yildagi 631-son <https://lex.uz/docs/-6266709?ONDATE=02.11.2022%2000>

16 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 30.05.2024 yildagi PQ-203-son <https://lex.uz/uz/docs/-6947643>

17 Manba: Soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.



Umumiy holat tahlili shuni ko'rsatadiki, 2024-yilda jami 5,07 mlrd dona markirovka kodi buyurtma qilingan bo'lib, shunda 3,95 mlrd donasi ishlab chiqarilgan yoki import qilingan. Ushbu mahsulotlarning 2,78 mlrd donasi tovar aylanmasiga kiritilgan, 1,25 mlrd donasi esa yakuniy iste'molchiga yetkazilgan. Mazkur ko'rsatkichlar mahsulotlar harakatining bosqichma-bosqich kuzatilayotganini hamda raqamli markirovkalash tizimi orqali ularning ishlab chiqarishdan realizatsiyagacha bo'lgan jarayonini monitoring qilish imkoniyati kengayayotganini ko'rsatadi.

Mahsulot turlari bo'yicha tahlil qilinganda, alkogol mahsulotlari bo'yicha 1,07 mlrd dona markirovka kodi buyurtma qilingan, 965 mln dona mahsulot ishlab chiqarilgan yoki import qilingan, 936 mln donasi aylanmaga kiritilgan hamda 172 mln donasi yakuniy iste'molchiga yetkazilgan. Alkogol mahsulotlari bo'yicha ishlab chiqarish yoki import darajasi 90 foizga yaqin, aylanmaga kiritish darajasi esa 87 foiz atrofida bo'lib, bu sohada markirovkalash jarayonlari nisbatan barqaror shakllanayotganini anglatadi. Shu bilan birga, yakuniy iste'molchiga realizatsiya qilingan mahsulotlar ulushi 17 foiz atrofida bo'lib, ushbu bosqichda fiskal ma'lumotlar integratsiyasini yanada kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi.

Tamaki mahsulotlari bo'yicha 2,90 mlrd dona markirovka kodi buyurtma qilingan, 2,18 mlrd dona mahsulot ishlab chiqarilgan yoki import qilingan, 1,46 mlrd donasi aylanmaga kiritilgan va 892 mln donasi yakuniy iste'molchiga realizatsiya qilingan. Ushbu mahsulot turi bo'yicha ishlab chiqarish yoki import darajasi 75 foiz atrofida bo'lib, tizimda sezilarli faollik mavjudligini ko'rsatadi. Yakuniy iste'molchiga realizatsiya qilingan mahsulotlar ulushi esa 30 foizdan ortiqni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich tamaki mahsulotlari aylanmasida raqamli kuzatuv mexanizmlarini chuqurlashtirish, rasmiy savdo kanallarini kengaytirish hamda hisobot intizomini yanada mustahkamlash zarurligini anglatadi.

Pivo mahsulotlari bo'yicha 1,09 mlrd dona markirovka kodi buyurtma qilingan, 806 mln dona mahsulot ishlab chiqarilgan yoki import qilingan, 392 mln donasi aylanmaga kiritilgan hamda 186 mln donasi yakuniy iste'molchiga yetkazilgan. Mazkur mahsulot turi bo'yicha ishlab chiqarish yoki import darajasi buyurtma qilingan kodlarga nisbatan 74 foizni tashkil etadi. Aylanmaga kiritilgan mahsulotlar ulushi 36 foiz, yakuniy iste'molchiga realizatsiya qilingan mahsulotlar ulushi esa 17 foiz atrofida bo'lib, bu pivo mahsulotlari bozorida raqamli hisobga olish, logistika nazorati va elektron hujjat almashinuvi mexanizmlarini yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Raqamli markirovkalash orqali kuzatuv tizimi joriy etilgani mahsulotlarning ishlab chiqarish, import, aylanmaga kiritish va yakuniy iste'molchiga realizatsiya qilish bosqichlarini tizimli nazorat qilish imkonini bermoqda. Shu bilan birga, mahsulotlarning yakuniy iste'molchiga yetib borish darajasini oshirish uchun realizatsiya bosqichidagi monitoringni kuchaytirish, mahalliy nazorat organlari bilan hamkorlikda logistika nuqtalarini tartibga solish, fiskal ma'lumotlar integratsiyasini kengaytirish, real-time monitoring tizimini yo'lga qo'yish hamda markirovkalangan mahsulotlar bo'yicha ommaviy hisobot taqdim etish mexanizmlarini takomillashtirish maqsadga muvofiqdir.

Shu tariqa, raqamli markirovkalash tizimi samaradorligini oshirish uchun ishlab chiqarishdan yakuniy iste'molchigacha bo'lgan barcha bosqichlarda shaffoflikni ta'minlash zarur. Bu nafaqat soliq tushumlari barqarorligini oshirishga, balki halol raqobat muhitini mustahkamlashga ham xizmat qiladi.

To'rtta mahsulot turi, ya'ni alkogol, pivo, tamaki va maishiy texnika mahsulotlari doirasida elektron hisobvara-fakturalarda markirovka kodlarini majburiy aks ettirmasdan markirovkalanadigan mahsulotlarni soha ishtirokchilari o'rtasida taqsimlash taqiqlangan.

Ushbu mexanizm orqali 167 ta ishlab chiqaruvchi, 1 556 ta import qiluvchi hamda 20 297 ta ulgurji va chakana savdo korxonasi uchun elektron hisobvara-fakturalarda markirovka kodlarini kiritish hamda ularning haqiqiylikni, ya'ni validatsiyasini mahsulot va xizmatlarning jami 24 881 ta identifikatsiya kodi — MXIK orqali majburiy aks ettirish talabi o'rnatilgan va amaliyotga joriy etilgan.

Validatsiya tizimining joriy etilishi natijasida 2024-yilda markirovka kodlarini noto'g'ri aks ettirish holatlari 2022-yilga nisbatan 2 barobarga qisqardi.

Soliq va bojxona organlarining ma'lumotlar bazalari markirovka operatori ma'lumotlar bazasi bilan muvaffaqiyatli integratsiya qilindi. Shuningdek, bojxona deklaratsiyasida agregatsiya import kodlarini — AIKni majburiy aks ettirish mexanizmi to'liq ishga tushirildi.

Raqamli markirovkalanishi lozim bo'lgan mahsulotlarni realizatsiya qiluvchi, biroq "Asl belgisi" axborot tizimida ro'yxatdan o'tmagan subyektlar hamda savdo shoxobchalariga 2D-skanerlar o'rnatilishi holati bo'yicha tahlillar amalga oshirildi. Mazkur tahlil natijalari 3-jadvalda keltirilgan.



Sohalar kesimida onlayn NKM o'rnatilgan tadbirkorlik subyektlari savdo shoxobchalarining 2D-skanerlar bilan jihozlanganlik holati tahlili¹⁸

Hudud nomi	Jami shoxobchalar soni	Jami dasturga ulangan 2D-skaner soni	Alkogol savdosi: shoxobcha soni	Alkogol savdosi: 2D-skaner soni	Tamaki savdosi: shoxobcha soni	Tamaki savdosi: 2D-skaner soni	Pivo savdosi: shoxobcha soni	Pivo savdosi: 2D-skaner soni	Maishiy texnika savdosi: shoxobcha soni	Maishiy texnika savdosi: 2D-skaner soni	Dorixonalar: shoxobcha soni	Dorixonalar: 2D-skaner soni	Suv va salqin ichimliklar: shoxobcha soni	Suv va salqin ichimliklar: 2D-skaner soni
Jami	83 776	61 289	9 747	7 949	3 015	2 075	452	325	10 253	6 497	12 349	10 219	47 960	7 831
Qoraqalpog'iston Respublikasi	3 931	3 599	576	542	129	126	21	21	586	557	491	479	2 128	881
Andijon viloyati	4 595	3 461	572	348	78	65	2	2	455	355	963	909	2 705	249
Buxoro viloyati	5 031	4 870	490	438	152	118	19	16	502	408	803	774	2 965	453
Jizzax viloyati	3 059	1 822	391	277	66	48	9	7	361	228	382	291	1 850	195
Qashqadaryo viloyati	5 310	3 454	632	561	101	86	12	8	730	344	818	743	3 217	434
Navoiy viloyati	3 808	2 240	399	397	90	72	5	3	456	198	448	367	2 430	302
Namangan viloyati	4 328	4 230	410	300	67	58	8	8	457	357	784	734	2 602	524
Samarqand viloyati	7 990	4 151	783	621	261	202	17	9	772	336	1 555	1 074	4 585	507
Surxondaryo viloyati	3 813	2 853	402	347	64	54	9	5	498	340	996	794	1 845	668
Sirdaryo viloyati	2 156	1 460	256	178	75	42	7	5	208	115	337	237	1 253	172
Toshkent viloyati	10 356	4 901	1 220	854	557	330	73	45	1 091	515	923	576	6 472	608
Farg'ona viloyati	6 333	5 488	570	525	110	103	7	6	845	690	1 273	1 227	3 428	517
Xorazm viloyati	4 909	4 039	511	480	52	45	28	26	838	387	732	709	3 148	1 106
Toshkent shahri	17 908	14 702	2 745	2 081	1 213	726	235	164	2 773	1 300	1 829	1 200	9 203	1 114

3-jadval ma'lumotlarida O'zbekiston hududlari bo'yicha onlayn NKM o'rnatilgan savdo shoxobchalari soni, ularning kassa dasturiga ulangan 2D-skanerlar bilan jihozlanganlik holati hamda turli sohalar kesimidagi ko'rsatkichlar tahlil qilingan.

Respublika bo'yicha jami 83 776 ta savdo shoxobchasi mavjud bo'lib, shundan 61 289 tasi 2D-skanerlar bilan jihozlangan. Bu umumiy jihozlanish darajasi 73 foizni tashkil etishini ko'rsatadi. Hududlar kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p savdo shoxobchalari Toshkent shahrida — 17 908 ta, Toshkent viloyatida — 10 356 ta va Samarqand viloyatida — 7 990 ta ekanligi aniqlanadi. Jihozlanish darajasi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichlar Namangan viloyati — 98 foiz, Buxoro viloyati — 97 foiz hamda Qoraqalpog'iston Respublikasida — 92 foizni tashkil etadi. Toshkent viloyati va Samarqand viloyatida esa ushbu ko'rsatkichni yanada oshirish imkoniyati mavjud.

Sohalar kesimida tahlil qilinganda, alkogol mahsulotlari savdosi bo'yicha jami 9 747 ta savdo shoxobchasidan 7 949 tasi 2D-skanerlar bilan jihozlangan bo'lib, jihozlanish darajasi taxminan 81 foizni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich Qoraqalpog'iston Respublikasida 94 foiz, Buxoro viloyatida 89 foiz, Farg'ona viloyatida esa 92 foiz atrofida shakllangan. Sirdaryo viloyatida ushbu yo'nalishdagi jihozlanish darajasini yanada oshirish maqsadga muvofiq.

Tamaki mahsulotlari savdosi bo'yicha 3 015 ta shoxobchadan 2 075 tasi 2D-skanerlar bilan ta'minlangan. Eng yuqori jihozlanish ko'rsatkichlari Qoraqalpog'iston Respublikasi, Farg'ona va Buxoro viloyatlarida kuzatiladi. Toshkent shahri va Toshkent viloyatida esa ushbu yo'nalishda 2D-skanerlar bilan jihozlash qamrovini kengaytirish imkoniyati mavjud.

Pivo mahsulotlari savdosi bo'yicha respublika miqyosida 452 ta savdo shoxobchasi mavjud bo'lib, ularning 325 tasi 2D-skanerlar bilan jihozlangan. Ushbu sohada Qoraqalpog'iston Respublikasi va Namangan viloyatida jihozlanish darajasi yuqori bo'lib, Xorazm viloyatida ham ijobiy ko'rsatkich qayd etilgan. Shu bilan birga, pivo mahsulotlari savdosi bo'yicha 2D-skanerlar qamrovini ayrim hududlarda yanada kengaytirish zarur.

Maishiy texnika savdosi bo'yicha jami 10 253 ta savdo shoxobchasidan 6 497 tasi 2D-skanerlar bilan jihozlangan bo'lib, umumiy jihozlanish darajasi taxminan 63 foizni tashkil etadi. Toshkent shahrida 2 773 ta savdo shoxobchasidan 1 300 tasi 2D-skanerlar bilan ta'minlangan. Buxoro va Namangan viloyatlarida ushbu soha bo'yicha nisbatan yuqori ko'rsatkichlar kuzatiladi.

Dorixonalar bo'yicha jami 12 349 ta shoxobchadan 10 219 tasi 2D-skanerlar bilan jihozlangan. Bu esa jihozlanish darajasi taxminan 83 foizni tashkil etishini ko'rsatadi. Buxoro, Namangan, Farg'ona va Xorazm

18 Manba: Soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.



viloyatlarida ushbu ko'rsatkich 90 foizdan yuqori bo'lib, farmatsevtika sohasida raqamli texnologiyalar jadal joriy etilayotganini anglatadi.

Suv va salqin ichimliklar savdosi bo'yicha jami 47 960 ta savdo shoxobchasidan 7 831 tasi 2D-skannerlar bilan jihozlangan. Ushbu ko'rsatkich mazkur yo'nalishda raqamli nazorat va hisobga olish mexanizmlarini yanada kengaytirish zarurligini ko'rsatadi. Xorazm viloyati, Toshkent shahri va Farg'ona viloyatida nisbatan yuqori natijalar qayd etilgan bo'lsa-da, soha bo'yicha umumiy qamrovni oshirish dolzarb hisoblanadi.

Jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, respublika bo'yicha onlayn NKM o'rnatilgan savdo shoxobchalarini kassa dasturiga ulangan 2D-skannerlar bilan jihozlash darajasi hududlar va sohalar kesimida turlicha shakllangan. Farmatsevtika va alkogol mahsulotlari savdosi sohalarida jihozlanish darajasi nisbatan yuqori bo'lsa, suv va salqin ichimliklar hamda pivo mahsulotlari savdosida ushbu ko'rsatkichni oshirish imkoniyati mavjud. Shu sababli mazkur yo'nalishlarda raqamli nazorat, elektron hisobot va texnik jihozlash qamrovini kengaytirish maqsadga muvofiq. Ayniqsa, Samarqand, Toshkent va Sirdaryo viloyatlarida 2D-skannerlarni joriy etish sur'atlarini oshirish soliq ma'murchiligi samaradorligini yanada kuchaytirishga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish jarayonlarini raqamlashtirish soliq ma'murchiligi samaradorligini oshirish, budjet tushumlari barqarorligini ta'minlash hamda tadbirkorlik subyektlari uchun qulay servis muhitini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Raqamli texnologiyalar, elektron hisobvaraq-fakturalar, onlayn NKM, 2D-skannerlar, raqamli markirovkalash va "Risk-tahlil" tizimlarining joriy etilishi soliq nazoratining aniqligi, tezkorligi va shaffofligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Soliq ma'murchiligi samaradorligini yanada oshirish maqsadida quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

Birinchi, soliq tekshiruvlarini tayinlashda inson omilini minimallashtirish maqsadida to'liq avtomatlashtirilgan "Risk-tahlil" tizimini yanada takomillashtirish zarur. Bu soliq nazoratini adolatli, shaffof va maqsadli tashkil etish imkonini beradi.

Ikkinchi, soliq nizolarini sudgacha hal qilish, ya'ni apellyatsiya tartibini raqamlashtirish hamda ushbu jarayonning ochiqligi va shaffofligini ta'minlash lozim. Bu soliq to'lovchilar huquqlarini himoya qilish va davlat organlariga bo'lgan ishonchni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Uchinchi, "Smart Compliance" yondashuvini keng joriy etish maqsadga muvofiq. Bunda soliq to'lovchi xatoga yo'l qo'ymasidan oldin tizim orqali proaktiv ogohlantirish mexanizmi ishga tushiriladi. Mazkur yondashuv soliq intizomini oshirish bilan birga, huquqbuzarliklarning oldini olishga yordam beradi.

To'rtinchi, soliq yukini adolatli taqsimlash uchun iqtisodiy faoliyatni raqamli monitoring qilish mexanizmlarini yanada kengaytirish zarur. Elektron hisobvaraq-faktura, onlayn NKM, 2D-skannerlar va raqamli markirovkalash tizimlari orqali rasmiy savdo aylanmasini kengaytirish soliq bazasining barqaror o'sishini ta'minlaydi.

Beshinchi, soliq organlarining servisga yo'naltirilgan faoliyatini yanada kuchaytirish lozim. Soliq organlarini faqat nazorat qiluvchi tuzilma sifatida emas, balki tadbirkorlik subyektlariga maslahat beruvchi, ko'maklashuvchi va qulay xizmat ko'rsatuvchi zamonaviy servis instituti sifatida rivojlantirish maqsadga muvofiq.

Umuman olganda, soliq ma'murchiligini raqamlashtirish jarayonlarini chuqurlashtirish soliq to'lovchilar uchun qulaylik yaratish, ma'muriy xarajatlarni kamaytirish, fiskal intizomni mustahkamlash va iqtisodiy faoliyat shaffofligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bois mazkur yo'nalishdagi islohotlarni tizimli davom ettirish mamlakat soliq tizimining samaradorligini yanada oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Altshuler, R., & Goodspeed, T. J. (2015). Follow the leader? Evidence on European and US tax competition. *Public Finance Review*, 43(4), 485–504.
2. Piliipenko, A. A. (2017). Tax aspects of the principle of certainty in law. *PRAVO.BY*, 2, 57–62. Available at: https://www.elibrary.ru/download/elibrary_29035471_37009560.htm (murojaat qilingan sana: 2021-yil 10-yanvar).
3. Van Brederode, R. F. (2013). The impact of science and technology on taxation. *Intertax*, 41(12), 628–637.
4. Аронов, А. В., & Кашин, В. А. (2007). *Налоги и налогообложение: учебное пособие*. Москва: Магистр, С. 99–100.
5. Ахмедов, Ф. Б. (2023). *Солиқ тўлашдан қочиш хавфларини аниқлашда замонавий фискал назорат механизмларини такомиллаштириш*. Диссертация автореферати. Тошкент.
6. Ваҳобов, А., & Жўраев, А. (2009). *Солиқлар ва солиққа тортиш*. Дарслик. Тошкент: "Шарқ" нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош тахририяти.



7. Даркина, Ю. А. (2019). Особенности налогового администрирования крупнейших налогоплательщиков. *Interactive Science*, 3(37).
8. Дементьева, Н. М. Солиқ сиёсати давлатнинг иқтисодий сиёсати сифатида. Available at: https://nsuem.ru/science/publications/science_notes/issue.php?ELEMENT_ID=1689
9. Демин, А. В. (2015). *Принцип определенности налогообложения: монография*. Москва: Статут, 368 с.
10. Жўраев, А., & Сафаров, Ф. (2005). *Солиқ назарияси*. Ўқув қўлланма. Тошкент: "Iqtisod-moliya", 48-бет.
11. Иванова, Н. В. (2011). Развитие научных представлений о налогообложении: общие и частные теории налогов. Научная статья по специальности "Экономика и бизнес".
12. Идирисов, А. О. (2023). *Солиқ маъмуриятчилиги тизимида солиқ назоратини такомиллаштириш*. Диссертация автореферати. Тошкент.
13. Карп, М. В. (2001). *Налоговый менеджмент: учебник для вузов*. Москва: ЮНИТИ-ДАНА, 39 с.
14. Қиёсов, Ш. У. (2023). *Жисмоний шахслар даромадларини солиққа тортиш механизмини такомиллаштириш*. Диссертация автореферати. Тошкент.
15. Soliq qo'mitasi ma'lumotlari. Available at: <https://www.soliq.uz>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 6/5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>